



MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHI VA UNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

*i.f.n. Sodikov Zokir Rustamovich,
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islom iqtisodiyoti va moliyasi,
ziyosat turizmi kafedrasida dotsenti*

Annotatsiya: Maqolada milliy iqtisodiyotning jahon bozoriga integratsiyalashuvi va uning xususiyatlari tahlil qilingan. Milliy iqtisodiyotning modernizatsiya qilish va ishlab chiqarish jarayonini diversifikatsiyalash jarayoni, investitsiyalarni jalb etish xususiyatlari va tashqi savdoning rivojlanish tendensiyasi o'rganilgan. Jamiyatning ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyoti va unda bozor munosabatlariga asoslangan ochiq iqtisodiyot tizimi rivojlanish jarayonining iqtisodiy integratsiyaga ta'siri bayon qilingan.

Abstract: The article analyzes the integration of the national economy into the world market and its features. The process of modernization of the national economy and diversification of the production process, features of attracting investments and the development trend of foreign trade are studied. The socio economic development of the society and the influence of the development process of the open economy system based on market relations on the economic integration are described.

Аннотация: В статье анализируются особенности интеграции национальной экономики в мировой рынок. Изучены процесс модернизации национальной экономики и диверсификации производственного процесса, особенности привлечения инвестиций и тенденции развития внешней торговли. Рассмотрены вопросы социально-экономического развития общества и влияние процесса развития системы открытой экономики, основанной на рыночных отношениях, на экономическую интеграцию.

Kalit so'zlar. milliy iqtisodiyot, eksport, xorijiy investitsiyalar, xalqaro savdo, jahon savdo, integratsiya, iqtisodiy salohiyat, jahon bozori, modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish, diversifikatsiyalash, tashqi savdo, bozor munosabatlari, ochiq iqtisodiyot, iqtisodiy integratsiya, jahon iqtisodiyoti, raqamli texnologiyalar, xalqaro hamjamiyat.

Keywords. national economy, export, foreign investment, international trade, world trade, integration, economic potential, world market, modernization, production, diversification, foreign trade, market relations, open economy, economic integration, world economy, digital technologies, international community.

Ключевые слова. национальная экономика, экспорт, иностранные инвестиции, международная торговля, мировая торговля, интеграция, экономический потенциал, мировой рынок, модернизация, производство, диверсификация, внешняя торговля, рыночные отношения, открытая экономика, экономическая интеграция, мировая экономика, цифровые технологии, международное сообщество.

Global tizimdagi barcha mamlakatlarda ijtimoiy - iqtisodiy salohiyat va taraqqiyotning o'ta darajada xilma-xilligi hamda aholi farovonligi bir-biridan keskin farq qilishi, ularning sarmoya va texnologiya borasidagi imkoniyatlarining nomutanosibligi hamda inson kapitali bo'yicha chuqur diskriminatsiyaning xalqaro miqyosda mavjudligi, jahonda atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik muammolarning kuchayishi, davlatlarning aholi potentsiali, ularning tabiiy o'sishi va tarkibiy tuzilishi hamda ijtimoiy-madaniy turmush

tarzidagi tafovutlarning keskin tus olayotganligi, ishlab chiqarishga innovatsion yondashuvlarning jadal joriy etilishi, kutilmagan tabiiy ofatlar va texnogen voqialarning sodir bo'lishi, mehnat unumdorligi va boshqa shu kabi shart-sharoitlar, omillar jahon miqyosida yaxlit ijtimoiy-iqtisodiy tizimni vujudga kelishiga va uning barqaror rivojlanishiga to'liq to'sqinlik qilishi tabiiy.

Bundan tashqari, globallashuv jarayonlarining o'ziga xos yana bir nozik qirrasini – bu biror bir mamlakatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, tabiiy voqiya-



hodisalarni va muammolarni, inqirozlarni tabiiy ravishda jahondagi qolgan mamlakatlarga ham kuchli ta'sirining yaqqol sezilishidir. Zero, xalqaro hamjamiyatda 20-asr oxiri va 21-asr boshlangandan beri kuzatilayotgan inqiroz va muammolarning global miqyosda sodir bo'lishi hamda ommaviy voqelikka aylanishi aynan globallasuvning mahsuli ekanligini unutmazlik kerak.

Biroq, bu keltirib o'tilgan asoslardan va voqealardan kelib chiqib milliy iqtisodiyotlarning jahondagi globallasuv jarayonlarida ishtirok etishi mutlaqo manfaatli emas degan xulosaga borish ham to'g'ri bo'lmaydi. Chunki zamonaviy taraqqiyot bois hech bir mamlakat bugungi kunda yopiq tizimga, ya'ni, mahdudlikka asoslangan milliy iqtisodiyotni barpo qilib, ko'zda tutilgan rivojlanishga va aholi farovonligiga erishish imkoniyatiga ega emas. Shu bois har bir mamlakat globallasuv jarayonlarining muvaffaqiyatlaridan samarali manfaat ko'rishga asos bo'ladigan va uning muammolaridan himoyalanihga xizmat qiladigan oqilona strategiyalarni ishlab chiqishi hamda amaliyotga keng joriy etishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shuning uchun mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning joriy va istiqboldagi chora-tadbirlarini ishlab chiqib, belgilashda jahon xo'jaligida uzoq va qisqa muddatlarda kutilayotgan ijobiy tendensiyalar bilan bir qatorda salbiy va ziddiyatli vaziyatlarning ta'sirini ham har tomonlama hisobga olib, milliy iqtisodiyotning rivojlanish dasturlari ishlab chiqilmoqda. Bunday yondashuv metodologiyasi milliy iqtisodiyotning global bozorda kuzatilayotgan muammolar va salbiy vaziyatlardan muhofaza qilishga, kelib chiqishi mumkin bo'lgan zararlarni oldini olishga zamin yaratadi.

O'zbekiston iqtisodiyotini har qanday inqirozlardan himoyalanihga va ijobiy marralarning uzluksiz qo'lga kiritilishiga uzoqni ko'zlab puxta ishlab chiqilayotgan oqilona ijtimoiy - iqtisodiy islohotlar va siyosatlar samarasi beqiyos bo'lishi aniq. Xususan, qisqa davrda ishlabchiqarish va tashqi savdi aloqalarida yangi va ulkan marralarni qo'lga kiritib bormoqda, buning natijasida mamlakatning ijtimoiy - iqtisodiy qiyofasi butunlay o'zgarib, jahon hamjamiyatida nufuzi ortib bormoqda.

Demak, milliy iqtisodiyotning muttasil va barqaror rivojlanib borishini ta'minlashda mamlakatning istiqboli va kelajagi uchun imkoniyat va shart-sharoitlardan kelib chiqib asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning strategiyalari va ustuvor yo'nalishlarini to'g'ri va aniq belgilanishi muvaffaqiyat garovi hisoblanadi.

Hozirgi sharoitda bunday tamoyillarga rioya qilishning ahamiyati ortib bormoqda. Chunki 21 asrda bo'lishi mumkin bo'lgan global ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muammolarning salbiy ta'sirini oldini olish va zararlarini kamaytirish uchun turli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqilishi hamda ularni amaliyotga joriy etilishida har tomonlama chuqur o'ylab asoslangan, o'ziga xos izchillikka ega va bosqichma-bosqich tadbirlarni amalga oshirilishi, muhim maqsad sari sobitqadamlik bilan harakat qilinishining asosi hisoblanadi. Milliy xo'jalikda iqtisodiy o'sish sur'ati uzluksizligi olib borilayotgan islohotlar va ijtimoiy - iqtisodiy siyosatning ahamiyatini tasdiqlaydi. Chunki mamlakatimiz iqtisodiyotida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barqaror darajasini saqlab qolishga muvaffaq bo'linmoqda.

Mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish izchilligini ta'minlash uchun iqtisodiy yuksalishga zamin yaratadigan muhim ustuvor yo'nalishlarni belgilab olinishiga, jahon bozorida yangi marralarni qo'lga kiritilishiga, mavjud imkoniyatlardan to'liq va samarali foydalanishga ustuvor ahamiyat berilib kelinayotganligi masalaning muhimlik darajasini ko'rsatadi.

Mamlakatlarning milliy iqtisodiyoti tarkibiy komponentlari sohalar, tarmoqlar, hududlar va ishlab chiqarish majmualaridan tashkil topadi. Ular o'rtasidagi bog'liqlik va bir-biriga o'zaro ta'siri milliy xo'jalik doirasidagi munosabatlar tizimini ifodalaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot davomida tarmoqlar va sohalar o'rtasida mutanosiblikni oqilona tarzda ta'minlash milliy iqtisodiyot barqaror rivojlanishi uchun muhim hisoblanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy tizim komponentlarining mutanosibligi hamda izchilligi tizimning yaxlitligiga va bir butun bo'lib rivojlanishiga zamin yaratadi. Milliy iqtisodiyotda tarmoqlararo va tarmoq ichi mutanosiblik – har qanday ijtimoiy-iqtisodiy tizimning barqaror va maqbul rivojlanishi uchun qonuniyat hisoblanadi.



Milliy iqtisodiyotning takror ishlab chiqarish jarayoni makrodarajada yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish shaklida namoyon bo'ladi, shu bois uning tarkibiy qismlari iqtisodiyotda amalga oshiriladigan islohotlar va o'zgarishlarning yo'nalishlarini belgilab beradi. Bu o'zgarishlar asosida aholining iste'mol va jamg'arish moyilligi, iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning investitsion imkoniyatlari va eksportga ixtisoslashuvi qanday tus olishi borasida tasavvur qilinishi mumkin bo'ladi.

Milliy iqtisodiyotning tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bo'yicha tarkibiy tuzilishi tarmoqlar va sohalarining nisbati hamda ularning dinamikasi, yetakchi tarmoqlarda samaradorlikning vaziyati, foydalanilayotgan resurslardan tejamkor va boshqalarni aniqlash borasida imkoniyat yaratadi. Ayni paytda, taraqqiyot natijasida ishlab chiqarish texnologiyasi ham shiddat bilan yuksalib, takomillashib xilma-xil bo'lib bormoqda.

Shuning uchun milliy iqtisodiyotning texnologik tuzilishi an'anaviy va zamonaviy texnologiyalar shaklida tavsiflanishi hamda ularning nisbatidagi o'zgarish dinamikasi, zamonaviy texnologiyalarning ishlab chiqarishga joriy etish tendensiyasini ko'rsatsa, uning mintaqaviy tuzilishi esa ishlab chiqarishda hududlarining o'rni va rolini, ularning o'zaro mutanosibligi va rivojlanish xususiyatlarini aks ettiradi.

Milliy iqtisodiyotning institutsional tuzilishini ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini tashkil etilishi va boshqarilishi, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyat hajmi va nufuzi, ya'ni, kichik, o'rta va yirik bizneslarning nisbatlari belgilab bersa, uning ijtimoiy tuzilishini esa jarayonda ahamiyat kasb etadigan mulk shakllari va jamiyatda olanayotgan daromadlarning aholi qatlamlari o'rtasida taqsimlanishi ko'rsatadi. Bunda tasniflangan ijtimoiy guruhlarning ishlab chiqarish jarayonidagi ulushi va uning dinamikasi mazkur vaziyatning istiqbolini aks ettiradi. Milliy iqtisodiyotning turli tuzilmalari uning yaxlitligini namoyon qilib, undagi elementlarning o'zaro ta'sirini ifodalaydi.

Bu elementlar tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, siyosiy, psixologik, tarixiy, FAN, JAMIYAT VA INNOVAYSIYALAR
Volume 1 Issue 9 Mart 2024

konfessional xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Mamlakat iqtisodiyotida makroiqtisodiy mutanosiblik milliy miqyosda namoyon bo'ladi. U yalpi ichki mahsulotning tarkibi iste'mol qilinishi bo'yicha pirovard iste'mol xarajatlaridan, yalpi jamg'armadan, davlat xarajatlaridan va tashqi savdo qoldig'idan tashkil topishi ma'lum. Agar, mamlakatda ishlab chiqarish hajmi ko'paymasdan yoki iqtisodiy o'sish sodir bo'lmasdan, takror ishlab chiqarish nisbatlarida pirovard iste'molning salmog'i ortsa, bu jamg'arish nisbatini pasaytirib natijada asosiy kapitalni yangilashga jalb qilinadigan investitsiyalar hajmining qisqarishiga turtki bo'ladi. Shuning uchun bu ishlab chiqarish tizimining texnologik salohiyatini cheklash orqali istiqbolda bu mamlakatda ishlab chiqarish quvvatining pasayishiga olib keladi.

Mazkur jarayon zanjirsimon ta'sir ko'rsatish orqali mamlakatda yalpi pirovard iste'mol hajmi qisqarishiga va aholi farovonligini pasayishiga sabab bo'ladi. Shu bois milliy iqtisodiyot tarkibiy tuzilmalari va qismlari o'rtasida mutanosiblik va muvozanat ta'minlash majburiyati qonuniyat hisoblanadi. Shuningdek, milliy iqtisodiyotda amalga oshiriladigan o'zgarishlar va islohotlar jarayonning tashqarisid moddiy va moliyaviy resurslar jalb qilish hamda tashkiliy – huquqiy asoslarni real vaziyatga muvofiqlashtirish orqali tashkil etilishi samarali natijalarga olib keladi. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va uni liberallashtirish makroiqtisodiy barqarorlikni muntazam mustahkamlashga va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashga tayanadi.

Mamlakatda makroiqtisodiy mutanosiblikni ta'minlashga davlat tomonidan qabul qilingan dasturlar asosida tarkibiy va institutsional o'zgarishlarni chuqurlashtirish orqali yalpi ichki mahsulotning yuqori o'sish sur'atlarini qo'lga kiritish natijasida erishish mumkin. Bundan tashqari, umumiy iqtisodiyotda muvozanat talab etilgani singari, uning tarkibiy bo'g'inlari o'rtasida ham muvozanat talab etiladi. Xususan, O'zbekistonda budjet xarajatlarining ijtimoiy yo'naltirilganligini ta'minlagan holda budjetning barcha darajalarida mutanosiblikni va muvozanatni saqlash, mahalliy budjetlarning daromad qismini mustahkamlashga yo'naltirilgan budjetlararo munosabatlarni takomillashtirishga



asos bo'ladi. Shuningdek, xalqaro tajribada qo'llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini izchil takomillashtirish va zamonaviy bozor mexanizmlari asosida valyuta bozorini bosqichma-bosqich rivojlantirish milliy pul birligi va ichki bozordagi narxlar barqarorligini ta'minlashga zamin yaratadi.

Milliy iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, yetakchi tarmoqlarni modernizatsiya va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobat kuchini oshirishga, tarmoqlar, sohalar va hududlarning mutanosibligi hamda barqarorligini ta'minlashga, sanoat va xizmat ko'rsatish sektorida kichik va o'rta biznesning ulushini oshirishga, xususi sektor hissasini kengaytirishga va davlat sektori ulushini qisqartirishga, bozor munosabatlarini rivojlantirishga, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilashga, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va

ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga, faol investitsiya siyosatini yuritishga, sanoatni yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga, iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobat muhitni shakllantirishga, mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirishga asos bo'ladi. Milliy iqtisodiyotni barqaror va mutanosib rivojlantirish, iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli barqaror sur'atini va makroiqtisodiy muvozanatini ta'minlash ishlab chiqarishni tarkibiy jihatdan o'zgartirish jarayonlarini chuqurlashtirishga va tovar tarkibini diversifikatsiya qilishga, jahon standartlariga mos keladigan, milliy va jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlar taklif qilishga va samarani oshirishga zamin hosil qilishi tabiiy hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 24.01.2020.
2. Tuxliyev N. (2021) Jahon iqtisodiyoti rivojlanishida yangi trendlar. Monografiya.– T.: "Ilm-Ziyo-Zakovat", 2021. – 72 b.
3. Tuxliyev N. va boshqalar (2018) O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. Darslik. T.: «O'zbekiston», 2018. -448 b.
4. Sodikov Z.R. (2021) Global savd sharoitida tashqi savdoning rivojlanish tendensiyasi. Monografiya. T.: "Complex print", 2021. 84 b.
5. IMF. (2023). World Economic Outlook Database.
6. ITC Trademap. (2023). <https://www.trademap.org/Index.aspx>.
7. ITC Trademap. (2023). <https://www.trademap.org/Index.aspx>.
8. World Trade organisation. (2022). Report on G20 Trade Measures. <https://www.wto.org>
9. World Investment Report (2022) <https://unctad.org/data-visualization/global-foreign-direct-investment-flows-over-last-30-years>.